

BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA EMOTSIONAL MUHITNING O'RNI

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna

FarDu o'qituvchisi, PhD

Buzrukova Olimaxon Ismoilovna

FarDU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20726777>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida emotsional muhitning ahamiyati yoritilgan. Shaxsning kreativ salohiyati ko'p jihatdan uning atrofidagi ijobiy psixologik muhit bilan bog'liq bo'lib, bu omil bola tafakkurining erkin, mustaqil va yangilikka intiluvchi tarzda shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotda o'qituvchi va ota-onaning mehr-muhabbat, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish orqali yaratgan iliq muhit ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy shartlardan biri sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, emotsional muhit, kreativlik, bola psixologiyasi, ijobiy motivatsiya, ta'lim jarayoni.

Annotation: This article highlights the importance of the emotional environment in developing creative thinking in children. The creative potential of a person is largely influenced by the positive psychological atmosphere surrounding them, which helps shape free, independent, and innovative thinking. The study analyzes how a warm environment created by teachers and parents through love, support, and encouragement becomes one of the key factors in fostering children's creativity.

Keywords: creative thinking, emotional environment, creativity, child psychology, positive motivation, educational process.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение эмоциональной среды в развитии творческого мышления у детей. Творческий потенциал личности во многом зависит от позитивной психологической атмосферы, которая способствует формированию свободного, самостоятельного и новаторского мышления. В исследовании анализируется роль тёплой среды, создаваемой учителем и родителями через любовь, поддержку и поощрение, как одного из основных факторов развития детского творчества.

Ключевые слова: творческое мышление, эмоциональная среда, креативность, психология ребёнка, положительная мотивация, образовательный процесс.

Kirish. Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda emotsional muhitning o'rni. Bugungi globallashuv va axborot asrida ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri — shaxsning ijodiy tafakkurini, mustaqil fikrlash va yangicha yondashish qobiliyatini rivojlantirishdir. Chunki XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun inson faqat tayyor bilimlarni egallab qolmasdan, balki ularni tahlil qilish, yangidan yarata olish, noodatiy fikrlashni o'zlashtirishi zarur. Shu nuqtai nazardan, bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish dolzarb masaladir. Ularning eng muhimlaridan biri bu — emotsional muhitdir.

Emotsional muhit tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni. Emotsional muhit — bu shaxsni o'rab turgan psixologik va ijtimoiy sharoitlar majmuasidir. U bolaning his-tuyg'ulari, o'zini anglash, o'qishga munosabati, muloqotdagi ishonchi va faoliyatdagi motivatsiyasini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ijobiy emotsional muhit mavjud bo'lsa, bola o'z fikrini erkin bayon qiladi, yangi

g'oyalarni sinab ko'rishdan cho'chimaydi va xatoni rivojlanish bosqichi sifatida qabul qiladi. Mashhur rus psixologi L.S. Vygotskiyning fikricha, bolaning kognitiv rivojlanishi uning ijtimoiy va emotsional tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham o'quv muhitida emotsional qo'llab-quvvatlash, ishonch, samimiyat va mehrning ustuvorligi ijodiy tafakkur jarayonini faollashtiradi.[1]

E. G'oziev esa shaxs tafakkurining faolligini emotsional barqarorlik bilan bog'laydi. Uning ta'kidlashicha, ijobiy hissiy fon mavjud bo'lgan dars jarayonlarida o'quvchi tafakkurining tezligi, g'oyalar oqimi va noodatiy yechim topish qobiliyati ortadi.[2]

Ijodiy tafakkurning rivojlanishida ijobiy emotsional muhitning ahamiyati. Ijodiy tafakkur — bu insonning yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga noodatiy yechim topish va yangilik yaratishga qodir bo'lgan fikrlash shaklidir. Bolalarda bunday tafakkurni shakllantirish uchun ular o'zini xavfsiz, qulay va qo'llab-quvvatlangan his qiladigan emotsional sharoit zarur.

O'qituvchi dars jarayonida ijobiy emotsional muhitni yaratish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

Bolaning shaxsiy fikrini qadrlash – har bir javobni e'tiborsiz qoldirmaslik, “xato”ni ayblov emas, o'rganish imkoniyati sifatida talqin etish.

Rag'bat va ishonch – og'zaki maqtov, tabassum, iliq munosabat orqali bolaning o'z kuchiga ishonchini oshirish.

Interfaol va o'yin metodlari – ijodiy topshiriqlar, rolli o'yinlar, kichik loyiha ishlari orqali darsni qiziqarli tashkil etish.

Muloqot madaniyati – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samimiy, hurmatga asoslangan muloqot muhitini yaratish.[3]

Shuningdek, oila muhiti ham bola emotsional rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Ota-onaning mehribonligi, e'tibori va qo'llab-quvvatlovi bolaning ichki motivatsiyasini shakllantiradi. Bolaga “sen qila olasan”, “men senga ishonaman” kabi iboralar bilan murojaat qilish uning o'ziga ishonchini oshirib, ijodiy fikrlash uchun qulay psixologik zamin yaratadi.[4]

Ta'lim jarayonida emotsional muhitni shakllantirishning samarali usullari. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, emotsional muhitni boshqarish dars samaradorligini bevosita oshiradi. Quyidagi metodlar aynan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ijobiy natija beradi:

“Erkin fikr” metodi – har bir o'quvchi o'z fikrini qo'rquvsiz ifoda etadi, boshqalar esa uni tinglaydi;

“Aqliy hujum” (brainstorming) – ijodiy g'oyalarni tezkor ilgari surish orqali yangilik yaratish muhitini shakllantiradi;

“Kichik guruhlar bilan ishlash” – o'quvchilarda jamoaviy ijodkorlik va hamkorlikda yechim topish malakasini rivojlantiradi;

“Rolga kirish o'yinlari” – empatiya va his-tuyg'u orqali ijodiy tafakkur jarayonini faollashtiradi.[5]

Bundan tashqari, o'qituvchi darsni boshlashdan oldin motivatsion psixotrening, qisqa emotsional tayyorgarlik mashqlari (masalan, tabassum almashish, bir-biriga yaxshi tilak bildirish) o'tkazsa, bu butun mashg'ulot davomida ijobiy psixologik fanni ta'minlaydi.

Xulosa. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida emotsional muhitning o'rni beqiyosdir. O'qituvchi va ota-onalar yaratgan ijobiy, quvnoq, ishonchli va rag'batlantiruvchi muhit bola tafakkurining erkin rivojlanishini, yangicha fikrlashga intilishini ta'minlaydi. Demak, ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki his-tuyg'ularni boshqarish,

ijobiy ruhiyatni shakllantirish ham pedagogning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Chunki har qanday ijodkorlik — ijobiy emotsiyadan boshlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Vygotskiy L.S. Myslenie i rech'. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
3. Karimova V.M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Ziyayeva S. Kreativ fikrlash va ta'lim jarayoni. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Nuriddinova M. Bola shaxsining emotsional rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.